



BUYRUQ

Toshkent shahri

№ 37 « 31 » mart 20 23yil

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
“Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash
va samaradorligini oshirishga doir
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
2021 yil 2 iyuldagi PQ-5171-son qarori
ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021 yil 2 iyuldagi PQ-5171-son qarori ijrosi yuzasidan **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021 yil 2 iyuldagi PQ-5171-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Avtomobil yo'llari qo'mitasi Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom 1-ilovaga muvofiq;

Avtomobil yo'llari qo'mitasi Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilishni tashkil etish va o'tkazish komissiyasi tarkibi 2-ilovaga, komissiya vazifalari 2a-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari bosh boshqarmalari hamda tarkibiy korxona va tashkilotlar tomonidan xarid qilinadigan tovarlar, xizmatlar va ishlar yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderni o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining namunaviy tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2021 yil 05 iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021 yil 2 iyuldagi PQ-5171-son qarori ijrosi to'g'risida”gi 116-sonli buyrug'i bekor qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar avtomobil yo‘llari bosh boshqarmalari, barcha tarkibiy korxona, tashkilot va muassasa rahbarlarining:

Qaror bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko‘rilishiga;

davlat xaridlarini ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilishiga;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rnatilgan tartibda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida joylashtirilishiga shaxsan javobgarliklari belgilab qo‘yilsin.

4. Axborot tahlil, ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash va umumiy bo‘lim (A.Salimov) mazkur qaror va ushbu buyruqni markaziy apparat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar avtomobil yo‘llari bosh boshqarmalari hamda barcha tarkibiy korxona, tashkilot va muassasalarga yetkazsin.

5. Ushbu buyruqning ijrosini qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda nazorati rais o‘rinbosari Sh. Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Qo‘mita raisi



A. Abduvaliyev

Avtomobil yo'llari qo'mitasining
2023 yil "31 mart" dagi
37 -sonli buyrug'iga
1-ilova

**Avtomobil yo'llari qo'mitasi Markaziy apparatida tovarlar,
xizmatlar va ishlarni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish
va o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Avtomobil yo'llari qo'mitasi Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (keying o'rinlarda – "Nizom") O'zbekiston respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonunga muvofiq Avtomobil yo'llari qo'mitasi (keying o'rinlarda – "Qo'mita") Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat xaridining tashabbuskori - Qo'mita markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi;

davlat xaridi – tovarlar, xizmatlar va ishlarni davlat buyurtmachilari tomonidan sotib olinishi;

eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

xarid qilish tartib-taomili – davlat xaridi bo'yicha hatti-harakatlar majmui;

xarid komissiyasi – Qo'mitaning buyrug'iga asosan tashkil etilgan va xarid qilish tartib taomillari g'olibini tanlash to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan ijrochi organ;

narx preferensiyasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son qarorining 1-band, "a" kichik bandining to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan preferensiya.

ochiqlik va shaffoflik prinsipi – tegishli davlat organlariga, davlat xaridlarining subyektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish;

Xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

2. Qo'mita xaridlarni amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ustuvorliklari shu jumladan yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarning yaratilishi, qulay ekologik vaziyatning saqlanishi hisobga olinadi.

3. Qo'mita xaridlarini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratilishi lozim:

Qo'mita Markaziy apparati tomonidan davlat xaridlarini o'tkazish harajatlari va tovarlar, xizmatlar va ishlar qiymatini hisobga olinishi;

Davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish, shu jumladan tovarlar, xizmatlar va ishlarni olishdan ko'rilgan naf, ularning sifati va qiymati o'rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri harajatlarini hisobga olgan holda) ta'minlash;

Davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o'tkazish imkonini beradigan oqilona va tejankor usullardan foydalanish.

2-bob. Qo'mitaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish bo'yicha boshqaruv organlari

4. Qo'mita xaridlari maqsadlar, prinsiplar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayonida barcha bosqichlarning yaxlitligi va o'zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha subyektlarining hamkorligiga asoslanadi.

5. Qo'mitaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish amalga oshirish bo'yicha boshqaruv organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- a) Xarid komissiyasi;
- b) Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi;
- d) davlat xaridining tashabbuskori.

olinadigan tovarlar, xizmatlar va ishlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rnatilgan tartibda Qo'mitaning tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi;

zarur bo'lgan taqdirda tegishli soha bo'yicha ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

7. Xarid komissiyasi – eng yaxshi takliflarni tanlash va tender orqali davlat xaridlarini amalga oshiradi.

8. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda, taklif kiritish tartibi, hajmi va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki tanlovni o'tkazadi, agar xarid qilish xujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki tanlov natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliliigi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

9. Xarid komissiyasining yuzma-yuz majlisi o'tkazilishi uchun xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etishi zarur.

10. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Xarid komissiyasining yig'ilish bayonnomalarini, baholash mezonlarini, qo'mita buyruq loyihasini va xarid qilish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni rasmiylashtiriladi;

Xarid komissiyasi a'zolarini yig'ilish kunidan kamida bir kun oldin o'rnatilgan tartibda xabardor qiladi va eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etishini ta'minlaydi.

11. Qaror xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

12. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

13. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

electron dokon maydonidan, boshlang'ich narxini pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshiradi;

Xarid komissiyasining yig'ilishlarini o'tkazish uchun qulay shart-sharoit yaratilishini (xona va h.k.) ta'minlaydi;

Xarid komissiyasining yig'ilish bayonnomasi va eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha g'olib bilan imzolangan shartnomaning ijrosini ta'minlaydi.

14. Davlat xaridining tashabbuskori quyidagi vazifalarni bajaradi:

tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha takliflarni Qo'mita rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun tegishli asoslar keltirilgan (moliyaviy hisob-kitoblar va boshqa hujjatlar ilova qilinadi) bildirgi bilan kiritadi;

tanlov (tender) o'tkazish uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi va ular Qo'mita markaziy apparati tegishli bo'linmalari hamda qonun hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa davlat organlari bilan kelishinishini ta'minlaydi.

3-bob. Qo'mitaning davlat xaridlari turlari

15. Xarid qilish turlari quyidagilardan iborat:

a) electron dokon orqali:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatidagi tovarlar, xizmatlar va ishlar xarid qilish;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha) qiymatdagi tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish;

b) boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion-tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorda;

d) eng yaxshi takliflarni tanlash:

tovarlar, xizmatlar va ishlarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorda;

e) tender:

tovarlar, xizmatlar va ishlarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorda;

f) to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

4-bob. Qo‘mitaning xaridlar faoliyatini amalga oshirish tartibi

16. Xarid qilishni o‘tkazish bo‘yicha buyruq davlat xaridining tashabbuskori tomonidan kiritilgan taklifga (bildirgi) asosan vazirlik rahbariyati tomonidan qabul qilinadi.

17. Davlat xaridining tashabbuskori tomonidan texnik topshiriq, shartnoma va tanlov o‘tkazish haqidagi e‘lonning matni ishlab chiqiladi.

18. Matnda davlat xaridining tashabbuskori mustaqil ravishda yoki davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqib, tegishli tarkibiy bo‘linmani jalb etgan holda tovarlar, xizmatlar va ishlarning boshlang‘ich narxi asoslantirilgan holda belgilanadi (qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno).

Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanadi.

Xarid komissiyasi Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan ishlar preferensiya berish tartibi to‘g‘risida Nizom talablari va Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning (xizmatlarning) ro‘yxatiga amal qilgan holda ishlarni tashkil etish lozim.

19. Qonunchilikda belgilangan holatlarda davlat xaridining tashabbuskori tomonidan tanlovning texnik topshirig‘i o‘rnatilgan tartibda tegishli davlat vakolatli organlarida ekspertizadan o‘tkaziladi yoki kelishiladi.

Agarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilgan bo‘lsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat’iy nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlar, xizmatlar va ishlarning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (byudjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitary korxonasiga (keying o‘rinlarda – “Kompleks ekspertiza qilish”) kiritiladi.

20. Davlat xaridining tashabbuskori tanlov hujjatlarini ko‘rib chiqish uchun tanlov o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasiga kiritiladi.

21. Xarid komissiyasi o'z majlislarida tanlov hujjatlari Qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni:

takliflar qabul qilinadigan muddatlarni;

takliflarni ochish tartib-taomillarini;

takliflarni baholash mezonlarini;

taklif kiritish tartibi, hajmi va uni ta'minlash shaklini belgilaydi.

22. Takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash natijalari bayonnomada qayd etiladi va tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining ishtirokchilari tomonidan imzolanadi.

Bayonnomadan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi tomonidan o'rnatilgan tartibda e'lon qilinadi.

22. Tanlov (tender) natijalari bo'yicha shartnoma tanlov (tender) hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov (tender) ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan e'tiboran o'n kundan kechiktirilmagan muddatda tuziladi.

23. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi Xarid komissiyasi yig'ilishining tasdiqlangan bayonnomasi va tanlov (tender) g'olibi bilan imzolangan shartnoma ijrosini hamda Qo'mita markaziy apparatining tegishli mas'ul bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlaydi.

24. Tenderda (tanlovda) xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar – mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'lgan taqdirda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan narx preferensiyasi qo'llaniladi.

Bunda tenderning (tanlovning) xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan har bir lot bo'yicha xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o'n besh foiz miqdorida narx preferensiyasi beriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur Nizom bilan davlat xaridlari sohasidagi belgilanmagan masalalar qonun xujjatlarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

26. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shikoyatlar, nizo va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

27. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv shartnomaning muhim shartlari o'zgartirilmagan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin.

28. Buyurtmachi tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar, videoyozuvlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

29. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasining
2023 yil "31" mart dagi
37-sonli buyrug'iga
2-ilova

Avtomobil yo'llari qo'mitasi
Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni
xarid qilishni tashkil etish va o'tkazish komissiyasi a'zolari tarkibi

Adilov O.Ch.	Rais o'rinbosari - bosh muhandis, komissiya raisi
Nazarov Sh.B.	Raisning birinchi o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari
<i>Komissiya a'zolari</i>	
Gapparov M.D.	Moliya-iqtisodiyot bosh boshqarmasi boshlig'i
Xojiyev I.E.	Avtomobil yo'llaridan foydalanish va texnik holatini tahlil qilish boshqarmasi boshlig'i v.b.
Tog'aynazarov N.I.	Buxgalteriya xisobi va hisoboti bo'limi boshlig'i- bosh buxgalter
Umarov X.D.	Bosh yuristkonsult
Muratova L.X.	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi-bosh mutaxassisi, komissiya kotibi

*Izoh: *Mazkur komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki bo'lmagan vaqtda (xizmat safari, kasallik davri) ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud tegishli funksiyalarni bajarayotgan shaxslar komissiya a'zolari hisoblanadi.*

***Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etishi mumkin.*

Avtomobil yo'llari qo'mitasining
2023 yil "31" mart dagi
97 -sonli buyrug'iga
2a-ilova

Avtomobil yo'llari qo'mitasi
Markaziy apparatida tovarlar, xizmatlar va ishlarni
xarid qilishni tashkil etish va o'tkazish komissiyasi vazifalari

- xarid qilish hujjatlarini kelishadi;
- takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
- takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;
- zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;
- dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- xarid qilish ishlarini qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi;
- xarid qilish ishlarida raqobat turlari go'libini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasining
2023 yil "31" mart dagi
37-sonli buyrug'iga
3-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari bosh
boshqarmalari hamda tarkibiy korxona va tashkilotlar tomonidan xarid
qilinadigan tovarlar, xizmatlar va ishlar yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash
va tenderni o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining
NAMUNAVIY TARKIBI**

Lavozimga ko'ra	Korxona yoki tashkilot rahbari, komissiya raisi
Lavozimga ko'ra	Korxona yoki tashkilot rahbari o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari
<i>Komissiya a'zolari</i>	
Lavozimga ko'ra	Moliya-iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va hisoboti sho'bbasi boshlig'i-bosh hisobchi
Lavozimga ko'ra	Bosh yuriskonsult
Lavozimga ko'ra	Avtomobil yo'llaridan foydalanish va texnik holatini tahlil qilish, transport, mexanizatsiya hamda texnik ta'minlash sho'bbasi boshlig'i
Lavozimga ko'ra	Davlat xaridlari yuzasidan mas'ul xodim, komissiya kotibi

*Izoh: *Mazkur komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki bo'lmagan vaqtda (xizmat safari, kasallik davri) ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud tegishli funksiyalarni bajarayotgan shaxsal komissiya a'zolari hisoblanadi.*

***Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etishi mumkin.*